

## **MAKTAB O'QUVCHILARINI ZAMONAVIY KASBLARGA QIZIQTIRISHDA KASBIY-IJODIY QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

**Kenjayeva Zilola Saminjon qizi**

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

56-maktab oliy toifali boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning zarurati tahlil qilinadi. Maqola kasbiy va ijodiy kompetensiyalar tushunchalarining ma'nosi, tarkibi va o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqadi. Kasbiy kompetensiya texnik bilimlar va amaliy ko'nikmalarni, ijodiy kompetensiya esa yangi g'oyalar yaratish va innovatsion yondoshuvlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, maqolada ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion o'qitish metodlari, amaliy ta'lim va ish joyida o'rgatishning ahamiyati yoritiladi. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni baholash va monitoring qilish jarayonlari hamda samarali hamkorlikni kuchaytirish masalalari ko'rib chiqiladi. Maqola maktab ta'limida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid tavsiyalarni taqdim etadi va soha bo'yicha kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbollarni belgilaydi.*

***Kalit so'zlar:** Kasbiy kompetensiya, Ijodiy kompetensiya, Innovatsion o'qitish metodlari, Amaliy ta'lim, Ish joyidagi o'qitish, Kompetensiyalarni baholash, Kompetensiyalarni monitoring qilish, maktab ta'limi, Ta'limda innovatsiyalar, Ta'lim samaradorligi, Kasbiy-ijodiy rivojlanish, Ta'lim metodologiyasi, Zamonaviy o'qitish yondoshuvlari, o'quvchilar rivoji, Professional ta'lim.*

## **РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ И ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ШКОЛЬНИКОВ С ЦЕЛЬЮ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ИХ СОВРЕМЕННЫМИ ПРОФЕССИЯМИ**

**Кенджаева Зилола Саминжон қизи**

Учитель начальных классов 56 школы

Багдадского района Ферганской области

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье анализируется потребность в развитии профессиональных и творческих компетенций студентов в технических высших учебных заведениях. В статье исследуются смысл, состав и взаимосвязь понятий*

профессиональной и творческой компетенций. Профессиональная компетентность включает в себя технические знания и практические навыки, в то время как творческая компетентность включает в себя способность генерировать новые идеи и инновационные подходы. В статье также рассматривается роль инновационных методов обучения, практического обучения и обучения на рабочем месте в развитии этих компетенций. Обсуждаются процессы оценки и мониторинга профессиональных и творческих компетенций и укрепления эффективного сотрудничества. В статье представлены рекомендации по развитию профессионально-творческих компетенций в техническом образовании и намечены перспективы дальнейших исследований в данной области.

**Ключевые слова:** Профессиональная компетентность, Творческая компетентность, Инновационные методы обучения, Практическое обучение, Обучение на рабочем месте, Оценка компетенций, Мониторинг компетенций, Техническое высшее образование, Инновации в образовании, Эффективность обучения, Профессионально-творческое развитие, Методика образования, Современные подходы к обучению, Развитие студентов, Профессиональное обучение.

## **DEVELOPING PROFESSIONAL AND CREATIVE ABILITIES OF SCHOOLCHILDREN IN ORDER TO INTEREST THEM IN MODERN PROFESSIONS**

**Kenjaeva Zilola Saminjon qizi**

Higher category primary education teacher at School No.56,

Baghdod district, Fergana region

**Abstract:** *This article analyzes the need for development of students' professional and creative competencies in technical higher educational institutions. The article examines the meaning, composition, and interrelationship of the concepts of professional and creative competencies. Professional competency includes technical knowledge and practical skills, while creative competency includes the ability to generate new ideas and innovative approaches. The article also discusses the role of innovative teaching methods, practical training and workplace training in the development of these competencies. The processes of assessment and monitoring of professional and creative competencies and strengthening effective cooperation are discussed. The article presents recommendations for the development of*

*professional and creative competencies in technical education and sets the prospects for further research in the field.*

**Keywords:** *Professional competency, Creative competency, Innovative teaching methods, Practical training, Workplace training, Competency assessment, Competency monitoring, Technical higher education, Innovation in education, Effectiveness of training, Professional and creative development, Education methodology, Modern teaching approaches, Student development, Professional learning.*

## **KIRISH**

Maktab ta'limi sohasidagi o'zgarishlar bugungi kunda ta'lim jarayonida yuqori malakali va raqobatbardosh yoshlarni tayyorlash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Ushbu o'zgarishlar, ayniqsa, kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarining joriy etilishi, talabalarni zamonaviy ish bozoriga tayyorlashda muhim omilga aylanmoqda [1]. Bundan tashqari, maktab ta'limida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik jarayonning modernizatsiyasi, innovatsion yondoshuvlarni joriy etish, shuningdek, ish joyidagi ta'lim va amaliyotlarning ahamiyati ortmoqda. Bu o'zgarishlar maktab ta'limi sohasida nafaqat bilimlarni, balki ijodiy fikrlashni va innovatsion yondoshuvlarni rivojlantirishga ham xizmat qilmoqda [2]. Shu bilan birga, maktab ta'limida amaliy ta'lim va ish joyidagi tajriba muhim o'rin tutadi. O'quvchilarga ish joylarida o'qish va ishlash imkoniyatini yaratish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktabi jarayonini ishlab chiqarish va ilm-fan bilan integratsiyalashayotgan bir paytda, talabalar amaliy tajribaga ega bo'lishlari kerak [3].

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

### *Kasbiy kompetensiyaning ma'nosi va tarkibi*

Kasbiy kompetensiya — bu o'z sohasida ishlash uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalar, tajriba va shaxsiy xususiyatlarning umumiy majmuasi. Kasbiy kompetensiyaning tarkibiga quyidagi elementlar kiradi:

1. *Bilimlar:* O'quvchi yoki mutaxassis soha bo'yicha kerakli bilimlarni egallashi lozim.
2. *Ko'nikmalar:* Ular, amaliy ishlarda malakali qarorlar qabul qilish va muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi.
3. *Shaxsiy xususiyatlar:* Jamiyatda samarali ishlash uchun zarur bo'lgan

sifatlar, masalan, jamoada ishlash, mas'uliyat, etika va boshqalar.

Kasbiy kompetensiya, o'quvchilarning texnologik bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlaydi, shu bilan birga, kasbiy faoliyatni samarali bajarish imkoniyatlarini oshiradi [4].

*Ijodiy kompetensiyaning o'ziga xosligi*

Ijodiy kompetensiya — bu yangi g'oyalarni yaratish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish va mavjud bilimlarni yangi tarzda qo'llash qobiliyatidir. Maktab ta'limi sohasida ijodiy kompetensiya zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqish va yangi, ilg'or yondoshuvlarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega. Ijodiy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi:

1. *Innovatsion fikrlash*: Yangi fikrlarni yaratish va ularni amaliyotga tadbiiq etish qobiliyati.
2. *Moslashuvchanlik*: O'zgarishlarga moslashish va yangi tizimlarni tezda o'zlashtirish.
3. *Kreativlik*: Yangi g'oyalar yaratish va an'anaviy yondoshuvlarni yangilash.

Ijodiy kompetensiya texnika va ilm-fan sohalaridagi taraqqiyotning asosini tashkil etadi va talabalarni yangiliklarni yaratishga undaydi [5].

Bugungi texnologik rivojlanish davrida texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Maktab o'quvchilardan nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar, balki ijodiy fikrlash, innovatsion yondashuv va kompleks muammolarni yechish qobiliyati talab qilinmoqda. Bu zarurat zamonaviy iqtisodiyot va sanoatning raqamli transformatsiyasi, shuningdek, ilg'or texnologiyalarning tezkor rivojlanishi bilan bog'liq.

*Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati*

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish bir qator sabablar bilan ahamiyatlidir:

1. Texnologik muammolarni hal qilish qobiliyati: Zamonaviy texnik vazifalar ko'pincha standart yondashuvlarni qabul qilmaydi.
2. O'quvchilar o'z mutaxassisligi doirasida ijodiy yondashuvni qo'llab, muammolarni innovatsion yechimlar bilan hal qilishni o'rganishlari kerak.
3. Raqobatbardoshlikni oshirish: o'quvchilar o'z kasbiy-ijodiy kompetensiyalari orqali mehnat bozorida yuqori mavqega ega bo'lishadi. Zamonaviy ish beruvchilar ijodkorlik, tashabbuskorlik va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir mutaxassislarni qidiradilar.
4. Yangi texnologiyalarni moslashtirish va qo'llash: O'quvchilar doimiy

ravishda rivojlanayotgan texnologiyalar bilan ishlashga moslashuvchan bo'lishlari zarur. Bu esa kasbiy-ijodiy kompetensiyalarning rivojlanishi orqali amalga oshadi.

5. Ko'p tarmoqli hamkorlik: Texnologiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislardan turli yo'nalishlardagi ekspertlar bilan hamkorlik qilish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish talab qilinadi.

### **NATIJALAR**

#### *Ikkala kompetensiyaning bir-biriga ta'siri*

Kasbiy va ijodiy kompetensiyalar bir-birini to'ldiradi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik professional faoliyatda samarali natijalarga erishishda katta rol o'ynaydi. Kasbiy kompetensiya talabaga muayyan sohada kerakli bilimlarni va ko'nikmalarni taqdim etsa, ijodiy kompetensiya bu bilimlarni yangi, innovatsion yondoshuvlar bilan amaliyotda qo'llashni ta'minlaydi. Masalan, muhandislik va texnika sohasida kasbiy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar ijodiy fikrlash orqali texnik muammolarni yangi usullar bilan hal qilishadi. Birinchidan, kasbiy kompetensiya — bu o'qituvchidan talabalarni aniq va samarali kasbiy ko'nikmalar bilan ta'minlashni talab qilsa, ikkinchidan, ijodiy kompetensiya talabani an'anaviy yondoshuvlar bilan cheklanmasdan, yangi g'oyalar yaratishga undaydi. Ularning birgalikda rivojlanishi mutaxassisning yuqori samarali va innovatsion ishlashiga imkon beradi. Shuningdek, ijodiy kompetensiya kasbiy bilimlarni kengaytirishga, yangi yondoshuvlarni ishlab chiqishga olib keladi [6].

#### *Ularni rivojlantirishda o'qitish metodlari*

Kasbiy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy o'qitish metodlari muhim rol o'ynaydi. Innovatsion ta'lim metodlari va amaliy o'qitish shakllari yordamida talabalarda kasbiy kompetensiya va ijodiy fikrlashni shakllantirish mumkin. Muammoli o'qitish metodlari, kreativ yondoshuvlarni o'rgatish va g'oya yaratish seminarlarini tashkil etish talabalar uchun foydalidir. Misol uchun, interaktiv ta'lim metodlari yordamida talabalarga real hayotdagi muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalarni o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyati beriladi. Innovatsion o'qitish metodlari o'z navbatida ijodiy kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi, chunki talabalar yangi fikrlar va yondoshuvlarni yaratishga undaladi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uchun esa talabalarni ilg'or texnologiyalar, amaliy mashg'ulotlar va real ish joylarida o'qitish muhimdir. Bu ikki kompetensiyani rivojlantirishda ko'p bosqichli o'qitish va interaktiv mashg'ulotlar o'z o'rnini topadi [7].

### **Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni**

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun texnika oliy ta'lim muassasalari quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratishlari zarur:



### **1. Ta'lim jarayonini innovatsion usullarga asoslash**

- O'qitish jarayonida interfaol metodlar, masalan, loyiha asosida ta'lim (PBL), dizayn fikrlash, va hakatonlardan foydalanish.
- Virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalarini qo'llash orqali talabalarga murakkab texnik tizimlarni ko'rgazmali o'rgatish.
- Simulyatsiyalar va o'yin texnologiyalarini tatbiq qilish orqali nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash.

### **2. Ijodiy qobiliyatlarni rag'batlantiruvchi muhit yaratish**

- Innovatsion laboratoriyalar va texnoparklarni tashkil etish, o'quvchilarni tajribalar va yangi ishlanmalar yaratishga jalb qilish.
- Talabalarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash va ularga moliyaviy hamda texnik yordam ko'rsatish.
- Tanlovlar, seminarlar va ilmiy konferensiyalar tashkil qilish orqali o'quvchilarni o'z bilim va g'oyalarini taqdim etishga undash.

### **3. Dasturiy ta'minot va texnologiyalardan foydalanish**

- Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus dasturiy ta'minot tizimlarini yaratish.
- Mashinasozlik, energetika, axborot texnologiyalari kabi sohalar uchun mo'ljallangan simulyatsiya dasturlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish.
- Sun'iy intellekt asosidagi tizimlardan foydalanish orqali talabalarning o'quv jarayonini individualizatsiya qilish.

#### **Munozara.** *Amaliy ta'lim va ish joyidagi o'qitish*

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda amaliy ta'lim va ish joyidagi o'qitish muhim rol o'ynaydi. Amaliy ta'lim — bu talabalar yoki mutaxassislarning nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, real ish sharoitlarida muammolarni hal qilishni o'rgatish jarayonidir. Bu, o'z navbatida, o'quvchilar uchun kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali metod hisoblanadi. Ish joyidagi o'qitish esa, talabalar va yosh mutaxassislarning kasbiy faoliyatini mustahkamlash uchun haqiqiy ish muhitida o'rgatishning samarali usulidir. Ish joyidagi o'qitish metodlari o'z ichiga kompaniyalarda yoki ishlab chiqarish sohalarida tashkil etilgan stajirovkalar, praktikumlar, mahorat darslari va boshqa shakllarni oladi. Bu usul talabalar va yosh mutaxassislarning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga, yangi texnologiyalarni o'rganishga va amaliy tajriba orttirishga yordam beradi [8].

#### *Kompetensiyalarni baholash va monitoring qilish*

Kompetensiyalarni baholash va monitoring qilish, o'quv jarayonining samaradorligini kuzatish, o'quvchilarning kasbiy va ijodiy ko'nikmalarini tahlil qilish va ularni takomillashtirishga yordam beradigan jarayonlardir. Kompetensiyalarni

baholash, talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarni o'lchashni o'z ichiga oladi. Bu, asosan, testlar, sinovlar, interaktiv baholash metodlari orqali amalga oshiriladi. Monitoring esa kompetensiyalarning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini kuzatish va o'quvchilarning rivojlanishini baholash jarayonidir. Monitoring tizimi samarali bo'lishi uchun uni doimiy ravishda yangilab turish, amaliyotdagi ko'nikmalarni baholashga katta e'tibor qaratish kerak. Bu, o'z navbatida, talabalarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi va o'qituvchilarga ta'lim jarayonini yaxshilashda yo'l-yo'riq ko'rsatadi [9].

Shuningdek, ushbu maqolada texnika maktab ta'limida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning zarurati, innovatsion o'qitish metodlari, amaliy ta'lim va ish joyidagi o'qitishning ahamiyati tahlil qilindi. Kasbiy kompetensiya va ijodiy kompetensiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'qitish jarayonini yanada samarali va innovatsion qilishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar va o'qituvchilar o'z sohasidagi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, yangi texnologiyalarni o'rganish va innovatsion yondoshuvlarni ishlab chiqish orqali o'z kompetensiyalarini oshiradilar. [10]

Mazkur yondashuvlarni tatbiq etish orqali maktab ta'limida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1. O'quvchilar o'z sohalarida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

3. O'quvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalari oshadi, bu esa ularning kasbiy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

4. Ta'lim samaradorligi va o'quvchilarning raqamli ko'nikmalar darajasi sezilarli ravishda ortadi.

## **XULOSA**

Maqolada ta'kidlanganidek, innovatsion o'qitish metodlari, amaliy ta'lim va ish joyida o'qitish maktab ta'limida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositalaridir. Shuningdek, kompetensiyalarni baholash va monitoring qilish jarayonlari talabalarining rivojlanishini kuzatish va o'quv jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Maqolada keltirilgan tavsiyalar va tahlillar, maktab ta'limida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, bu soha bo'yicha kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbollarni ochib beradi. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion metodlar va ish joyidagi o'qitish jarayonlarini yanada kengaytirish va amaliyotga tatbiq etish, texnik ta'limni yanada samarali va zamonaviy talablar darajasiga ko'tarishga yordam beradi.[11]

Maktab ta'limida o'quvchilarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kundagi texnologik rivojlanish va raqamli transformatsiya sharoitida muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat talabalarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlash, balki texnik sohaning global rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi. Ta'lim muassasalarining bu yo'nalishda tizimli ishlashi nafaqat o'quvchilar bilim darajasini, balki ularning ijodiy va innovatsion salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov, X. O., Norinov, M. U., & Ergashev, A. A. (2023). O'zbek jadid mutafakkiri Abdulla Avloniyning inson va tabiat munosabatlari haqidagi qarashlari. *Research and implementation*, 1(6), 40-44.
2. Oribjonovich, Q. X., & Nabiyevna, Q. X. (2023, April). OLIY TALIM TALABALARIDA PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI. In *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (pp. 7-11).
3. Qodirov, X. O., Norinov, M. U., & Ergashev, A. A. (2023). Uzluksiz ta'lim tizimida hamkorlik pedagogikasining insonparvarlashuv xususiyatlari. *Research and implementation*, 1(6), 45-50.
4. Oribjonovich, Q. X., & Nabiyevna, Q. X. (2023, April). Tarbiya fani o'qituvchisining tashkilotchilik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha sirtqi ta'lim talabalarida didaktik ta'minotini takomillashtirish. In *International Congress on Models and methods in Modern Investigations* (pp. 1-6).
5. Oribjonovich, Q. X., & Najimidin o'g, N. M. R. (2023). Inson intellektual va ma'naviy kamoloti bosqichlari. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 18(8), 39-43.
6. Мухтаров, Ф. М., & Орибжонович, Қ. Х. (2023, April). Олий Таълимда Инновацион-Педагогик Фаолиятнинг Ижтимоий-Психологик Хусусиятлари. In *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses* (pp. 39-44).
7. Oribjonovich, Q. X., & Najimidin o'g, N. M. R. (2023). Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida tolerantlik madaniyatining o'rnini. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 18(8), 44-46.
8. Qodirov, X., & Abdullajonova, N. (2023). Значение кооперативной педагогики в формировании характеристик человечности. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 560-563.



9. Qodirov, X. (2023). Характеристика проявления инновационности на уровне личности как следствие профессионально-педагогической культуры. *Farg'ona davlat universiteti ilmiy jurnali*, (1), 38-41.
10. O'ktamovich, B. I., & Oribjonovich, Q. X. Najimidin o'g, NMR, & Abdugoffor o'gli, XA (2023, April). OTM Talabalarida Pedagogik Maxoratini Rivojlantirish Masalalari. In *Conference on Applied and Practical Sciences* (pp. 100-104).
11. Qodirov, X., & Abdullajonova, N. (2023). HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING INSONPARVARLIK HUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 225-225.
12. Oribjonovich, K. H. (2022). Pedagogical skill in the activity of a teacher is a product of individual characteristics. *International Journal of Pedagogics*, 2(12), 18-22.
13. Qodirov, X. (2023). The classification of innovativeness on the level of an individual as property of the professional pedagogical culture. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 29(1), 8.
14. QODIROV, H. (2023). KASB–HUNAR MAKTABLARIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI SHAKLLANTIRISH. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 1(5), 160-163.
15. Aliboev, T., & Qodirov, H. (2023). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOG MAHORATI MUHIM OMIL. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 18(4), 42-45.
16. Кадиров, X. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3.
17. Qodirov, X. (2023). AI IN TRANSLATION: BENEFITS, CHALLENGES, AND THE ROAD AHEAD. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 6(2), 122-126.
18. Qodirov, X. (2023). MATERIALS FOR TEACHING CULTURE: LITERATURE.
19. Qodirov, H. (2018). Strategy of action of Uzbekistan on the development of export of textile products. *Journal of Accounting and Marketing*, 7, 301.
20. Qodirov, X., Rajabova, X., Abdullajonova, N., Otaxonova, Z., Aliev, I., Abdurakhmon, S., & Sayitov, S. (2024, November). On analytical study of heat transfer phenomenon in special-shape soldering iron. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 508, p. 05006). EDP Sciences.

21. Qodirov, X., & Yoqubjonov, S. (2023). YOSHLARDA MILLIY G‘URUR VA MILLIY IFTIXOR TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISHDA, BOBUR HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI. *Journal of technical research and development*, 1(2), 465-470.
22. Zaxidov, I., & Qodirov, X. (2024). THE SIGNIFICANCE OF TEACHING KNOWLEDGE OF HOMOGENEOUS MAGNETIC FIELD THROUGH THE ANDROID PROGRAM IN A SCHOOL PHYSICS COURSE. *Science and innovation*, 3(B5), 110-116.
23. Qodirov, X. (2023). O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI TOMONIDAN QABUL QILINGAN DOLZARB HUQUQIY HUJJATLARNI O‘RGANISH METODIKASI. *Journal of technical research and development*, 1(2), 247-252.
24. Qodirov, X., & Nabiyev, I. (2023). MAHMUDHO ‘JA BEHBUDIYNING DAVLAT BOSHQARUVI HAQIDAGI QARASHLARI. *Journal of technical research and development*, 1(2), 391-396.
25. Qodirov, X., & Evatov, S. (2023). OILA MUSTAHKAMLIGINI OSHIRISHDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA IQTISODIY YUKSALISH. *Наука и технология в современном мире*, 2(21), 67-69.
26. Qodirov, X. (2023). PROFESSIONAL-PEDAGOGIK MADANIYATNING XOSSASI SIFATIDAGI INNOVATSIONLIKNING SHAXSIYAT DARAJASIDA NAMOYON BO‘LISH TASNIFLARI. *Farg‘ona davlat universiteti*, (1), 8-8.
27. O‘ktamovich, B. I., Oribjonovich, Q. X., Najimidin o‘g‘, N. M. R., & Abdugoffor o‘gli, X. A. (2023, April). OTM Talabalarida Pedagogik Maxoratini Rivojlantirish Masalalari. In *Conference on Applied and Practical Sciences* (pp. 100-104).